



AGROTURIZM VA ECOTURIZM INTEGRATSIYASI ASOSIDA MADANIY MEROSNI SAQLASH

Axtamova Muhayyo Anvar qizi,

Turizm va mehmondo'stlik yo'nalishi 2-bosqich talabasi,

Samarqand agroinnovatsiyalar va tadqiqotlar instituti.

Annotatsiya: Turizm xalqaro sohada eng yuqori daromad keltiradigan sohadir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining Butunjahon sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra turistik maqsadlar bilan sayohat qiluvchilar sonini 2 milliardga yetganini taxmin qilmoqda.[1] Ushbu maqolada biz agroturizm va ecoturizmning birlashuvini ko'rib chiqamiz: ular qanday qilib qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirishga yordam beradi, madaniy merosni himoya qiladi va iqlim o'zgarishiga qarshi kurashadi. Haqiqiy faktlar va O'zbekistondagi misollar bilan boyitilgan holda, bu mavzu o'quvchini o'ziga jalb qiladi – chunki bu nafaqat nazariya, balki amaliyotda qo'llaniladigan innovatsion yechim.

Kalit so'z: Agroturizm, Ecoturizm, madaniy meros, iqlim o'zgarishi, turizm, Qishloq xo'jaligi, Butunjahon turizm tashkiloti, ekologik ong.

Аннотация: Туризм — самая прибыльная отрасль на международной арене. По данным Всемирной туристской организации ООН, число туристов, путешествующих с туристическими целями, достигло 2 миллиарда[1]. В этой статье мы рассмотрим взаимосвязь агротуризма и экотуризма: как они способствуют устойчивому развитию сельского хозяйства, защите культурного наследия и борьбе с изменением климата. Эта тема, подкрепленная реальными фактами и примерами из Узбекистана, увлечет читателя, поскольку это не только теория, но и инновационное решение, применимое на практике.



Ключевые слова: Агротуризм, Экотуризм, культурное наследие, туризм, изменение климата, Сельское хозяйство, Всемирная туристская организация, экологическое сознание.

Abstract: Tourism is the highest-grossing industry in the international arena. According to the United Nations World Tourism Organization, the number of tourists traveling for tourism purposes has reached 2 billion[1]. In this article, we will look at the convergence of agritourism and ecotourism: how they contribute to the sustainable development of agriculture, protect cultural heritage and combat climate change. Enriched with real facts and examples from Uzbekistan, this topic will captivate the reader - because it is not only a theory, but also an innovative solution that can be applied in practice.

Keywords: Agrotourism, Ecotourism, cultural heritage, climate change, tourism, Agriculture, World Tourism Organization, environmental awareness,

Kirish: Ikkinchi jahon urushidan so'ng dunyoning barcha mamlakatlari turizm bilan shug'ullanmoqdalar. Tabiatning eng chekka burchaklariga texnik inqilob, aloqa va transport rivojlanganidan keyin ommaviy turizm uchun kirish mumkin bo'ldi va bu 70-yillardan boshlandi. XX-asr turizm aholiga o'rtacha va hatto kam daromad bilan keladi, yoshlar turizmi rivojlanib bormoqda piyoda yurish va ot sayohatlari, toqqa chiqish, chang'i uchish va boshqalar.[2;26] 2024-yilda O'zbekistonga sayyohlik maqsadida kelgan xorijiy fuqarolar soni 7,9 millionga yetdi, bu esa agroturizmning iqtisodiy ahamiyatini ko'rsatadi. Ammo bu faqat boshlanishi: iqlim o'zgarishi qurg'oqchilikni kuchaytirganda, agroturizm barqaror suv ta'minoti va organik fermerlikni rag'batlantirib, qishloq hududlarini himoya qiladi. 2025-yilning dastlabki to'qqiz oyida O'zbekistonga 8,6 million xorijiy sayyoh keldi, bu o'tgan yilga nisbatan 49,3% o'sish – ecoturizmning mashhurligini ko'rsatadi. Bu raqamlar shuni ko'rsatadiki, ecoturizm nafaqat



iqtisodiy, balki madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynaydi: sayyohlar daromadi qadimiy binolarni restavratsiya qilishga sarflanadi

Agroturizm turizmning yangi turi emas. U Yevropada qo'llanila boshlanganiga taxminan 100 yillar bo'ldi. Qishloq xo'jaligi hududlari tabiiy va madaniy diqqatga sazovor joylari bilan shahar aholisining ehtiyojlarini qondiradi. Bu istak bilan shakllanadigan turizmning bir turi agroturizmdir[3]. Agroturizmning mohiyati — bu sayyohlarni qishloq hayoti, dehqonchilik, chorvachilik, shuningdek, milliy an'analar bilan tanishtirishdir. Bunday turizm turlarida mehmonlar mahalliy aholining kundalik faoliyatida bevosita ishtirok etishadi: non yopish, gilam to'qish, kulolchilik, kashtachilik, misgarlik, yog'och o'ymakorligi kabi qadimiy san'atlar bilan tanishadilar. Bu jarayonlar nafaqat sayyohlarga yangi tajriba beradi, balki hunarmandchilik an'alarining davom etishini ta'minlaydi. Masalan, Italiya, Yaponiya va O'zbekiston da agroturizm loyihalari orqali yo'qolib borayotgan hunar turlarining qayta tiklanish holatlari kuzatilgan. Madaniy meros va turizm-ekskursiya faoliyati bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning hamkorligi jamiyat taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixiy yodgorliklar, madaniy obyektlar va milliy an'analar turizmning asosiy resurslari hisoblanadi. Shu bilan birga, turizm sohasi ushbu merosning saqlanishi, restavratsiyasi va xalqaro miqyosda ommalashishiga xizmat qiladi.

Ekologik turizm o'tgan asrning oxirlaridan boshlab jahon turizmi industriyasiga asta-sekin kira boshladi. Butunjahon turizm tashkilotining ma'lumotlari bo'yicha keyingi besh yilda ekologik turizmدا turistlar oqimi tobora ko'payib borayotganligi haqida hisob-kitob natijalari keltirilgan. Ushbu turizm yo'nalishida janubiy Yevropa, Janubiy sharqiy Osiyo, kichik Osiyo, Xitoy va Afrika qit'asidagi davlatlar oldingi o'rinlarda borishmoqda. Albatta, qayd qilingan geografik tabiiy manzillar betakror tabiat mintaqalar bo'lib, doimiy bahor va yoz iqlimiga ega bo'lgan davlatlarning tabiatdagi biologik xilma-xillik resurslari, sharoitlari bu mintaqalarda yil davomida turistlar oqimining ko'payishini



ta'minlaydi, imkoniyatlar yaratadi. Hozirgi kunga kelib jahonda ekologik turizm jadal suratlar bilan rivojlanib borayotgan turizm sohalaridan biriga aylandi[4;166].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta'kidlagandek “ Go'zal geografik va tabiiy sharoitlar Respublikamiz hududida ekologik turizmni rivojlantirish uchun g'oyat qulaydir. Bu borada mamlakatning tog'li hududlarida joylashgan, zamonaviy jihozlangan sayyohlik majmualarida qishki va noyob sayyohlik dasturlari tashkil etilgan. gan. Sayyohlikning yangi yo'nalishi-yirik qo'riqxonalar va bog'lar xududida tashkil etilgan tabiatshunoslik turizmi rivojlanmoqda”[5].

Xulosa. Agroturizm va ekoturizmning o'zaro integratsiyasi nafaqat iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, balki madaniy merosni asrab-avaylashning zamonaviy mexanizmi sifatida namoyon bo'lmoqda. Shu jarayon orqali qishloq hududlarida hunarmandchilik, milliy taomlar, urf-odat va me'moriy qadriyatlar qayta jonlanmoqda. Agroturizm loyihalari tufayli unutilgan kasb-hunarlar, masalan, gilam to'qish, kulolchilik, yog'och o'ymakorligi kabi san'atlar yana iqtisodiy va madaniy ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa nafaqat sayyohlarni jalb qilish, balki mahalliy aholini ish bilan ta'minlash orqali ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlaydi. Ekoturizm esa ekologik ongni shakllantiradi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish madaniyatini targ'ib etadi. Shunday qilib, agroturizm va ekoturizmning uyg'unlashuvi orqali madaniy merosni asrash, qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, iqlim o'zgarishiga moslashish va ekologik barqarorlikni ta'minlash imkoniyati yaratiladi. O'zbekiston uchun bu yo'nalish kelajakda milliy iqtisodiyotning innovatsion ustuvor sohalaridan biriga aylanishi, dunyo turizm xaritasida o'zining alohida o'rnini mustahkamlashiga xizmat qiladi.



Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. UNWTO (2024). Tourism Highlights. 2024.
2. Egamberdiyeva L.Sh. Ekturizm. O'quv qo'llanma. Toshkent-2021 "Fan ziyosi".
3. Iroda Jontemirova. "Agroturizm: Qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun imkoniyat"- 2023.
4. I.S.Tuxliyev, R. Hayitboyev, B. Sh. Safarov, G. R. Tursunova. Turizm asoslari. Toshkent-2014.
5. Ekologiya gazetasi (Экологический вестник). Ж. Тошкент, № 6, 2007.
6. Renessans-edu.uz.
7. Inlibrary.uz.
8. Uz.wikipedia.org.